

**BUXORO XONLIGI (AMIRLIGI) SHAHARSOZLIGIDA ANSAMLSOZLIK
IFODASI**

*Guliston Davlat Universiteti
Psixologiya va ijtimoiy fanlar
fakulteti Tarix yo'nalishi talabasi*

Suyunov Ziyomuxammad

Ilmiy rahbar: t.f.b.f.d., PhD

Qudratov Davlatbek Turdibekovich

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Buxoro xonligi (amirligi) davridagi shaharsozlikda me'moriy ansambl tamoyillarining ifodalanishi tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor ansamblarning shahar makonini tashkil etishdagi ahamiyatiga qaratilgan. Buxoro shahri misolida Qo'sh madrasa, Poyi Minor majmuasi, Registon ansambli kabi tarixiy-me'moriy obidalar tahlil qilinadi. Ushbu ansamblarning joylashuvi, funksional birlikda barpo etilishi va badiiy uyg'unligi shaharsozlikda muhim rol o'ynagan. Maqolada ansamblarning estetik talablarga javob beruvchi arxitektura shakllari, ularning ijtimoiy va diniy hayotdagi o'rni, hamda ularning bugungi kungacha saqlanib qolgan tarixiy-madaniy meros sifatidagi ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot Buxoro xonligi davrida shakllangan urbanistik an'analarning rivojlanish bosqichlarini ochib beradi.*

Kalit so'zlar: Ansambl, kompleks, Qo'sh madrasa, Mir Arab, Poyi Minor, Registon, Yalangto'sh Bahodirxon, Sherdor madrasasi, Tillakori masjidi.

Abstract: This article analyzes the expression of the principles of architectural ensemble in urban planning during the Bukhara Khanate (emirate). The main attention is paid to the importance of ensembles in organizing urban space. On the example of the city of Bukhara, historical and architectural monuments such as the Qosh Madrasa, the Poyi Minor complex, and the Registan ensemble are analyzed. The location, functional unity, and artistic harmony of these ensembles played an important role in urban planning. The article highlights the architectural forms of ensembles that meet aesthetic requirements, their role in social and religious life, and their significance as a historical and cultural heritage that has survived to this day. The study reveals the stages of development of urban traditions formed during the Bukhara Khanate.

Keywords: Ensemble, complex, Qosh Madrasa, Mir Arab, Poyi Minor, Registan, Yalangtosh Bahodir Khan, Sherdor Madrasa, Tillakori Mosque.

Mamlakatimiz hududida mavjud bo'lgan to'rt mingdan ziyod moddiy-ma'naviy obida umumjahon merosining noyob namunasi sifatida UNESCO ro'yxatiga kiritilgan.

Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida

saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi.³⁵

Ma'lumki har bir shahar, qishloq yoki boshqa biror turdagi aholi yashash joylarining diqqatga sazovor qismi alohida bejirim qilib qurilgan imorat yoki binolar majmuasi bilan mujassamlashtiriladi. Binolar turkumining badiiy jihatdan o'zaro yaxshi bog'langanligi me'moriy ansambl yoki kompleks deb nomlanishiga sabab bo'ladi. Ta'kidlash joiz-ki, bugungi kungacha "ansambl" va "kompleks" so'zini ishlatish haqida ma'lum bir qonuniyat mavjud emas. Bu esa o'z navbatida shunchaki yonma-yon joylashgan imoratlarni ham ansambl deb atalishiga olib kelmoqda.

Me'morchilik adabiyotlaridagi ansambl va kompleks iboralarini talqin etishga bag'ishlab N. V. Baranov, A. V. Bunin, V. L. Voronina, A. V. Ikonnikov, V. V. Kostochkin, V. A. Lavrov, V. Smolina va boshqa olimlar bir qator ilmiy maqolalar e'lon qilishgan. Bu izlanishlarda "me'moriy ansambl" tushunchasi turli nuqtai nazardan bayon etilgan.³⁶ V. V. Kostochkinning fikriga ko'ra, ba'zilar badiiy uyg'unlashgan binolar guruhini ansambl deb atashsa, xuddi shuning o'zini boshqalar kompleks deyishadi. Ko'pchilik mutaxassislar tomonidan me'moriy ansamblning shakllanishi uchun birinchi omil – binolarning o'zaro badiiy jihatdan uyg'unlashuvi deya e'tirof etiladi. Biroq qo'shimcha omil sifatida boshqa olimlar, jumladan, V. V. Kostochkin bunday binolar bir davrda va bir yoki ikki me'mor tomonidan qurilgan bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Shuningdek, V. L. Voronina boshchiligidagi bir guruh olimlar yaxshi qurilgan shahar ham ansambl, bir necha binolarning uzviy bog'lanishi ham ansambl va ularning majmuasi ham ansambl deya ta'riflashadi.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib, bir xil me'moriy usulda qurilgan Buxorodagi "Qo'sh madrasa" (Abdullaxon va Modarixon madrasalari)ni ansambl deb, shu usulda qurilgan Ulug'bek va Abdulazizxon madrasalarini ansambl demasligimiz kerak.

Umuman olganda "ansambl" va "kompleks" iboralarini badiiy estetik kategoriya sifatida shahar yoki boshqa biron turdagi aholi istiqomat qiluvchi hududdagi diqqatga sazovor inshootlar turkumini ifodalashda ishlatiladi. Yuqoridagi so'zlarning lug'aviy ma'nosiga e'tibor beradigan bo'lsak, "ansambl" iborasi fransuz tilidan olingan bo'lib, "birgalikda yaxlit", "uyg'unlashmoq" degan ma'noni anglatadi. "Kompleks" esa lotincha so'z bo'lib bir "guruhga birlashmoq" ifodasini bildiradi.

Shunday qilib me'moriy ansambl deb binolarning o'zaro badiiy uyg'unlashgan turkumini, kompleks deb esa funksional yoki biror bir texnikaviy hamda texnologik zarurat asosida uyushgan imoratlar turkumini tushunitirish mumkin. Ma'lumot uchun, bir necha ansamblar ham o'zaro ansamblar kompleksini tashkil etadi.

³⁵ I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch". "Ma'naviyat" 2010

³⁶ М. К. Ахмедов. ЎРТА ОСИЁ МЕЪМОРЧИЛИГИ ТАРИХИ. ТОШКЕНТ. "ЎЗБЕКИСТОН". 1995.

O'rta Osiyo shaharsozligidagi me'moriy ansamblar tizimiga e'tibor beradigan bo'lsak, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi qadimiy shaharlarning tarkibiy qismini turkum-turkum qilib qurilgan jamoat binolari, mahalla markazlari va ularning atrofini qurshab olgan turarjoy binolar tashkil etadi. Mana shu jamoat binolari va mahalla markazlarining qurilish uslubida ma'lum qonuniyatlar aniqlangan. Ushbu qonuniyatlar uyg'unlashgan muhit — ansambl yaratish san'ati hisoblanadi.

O'rta Osiyo shaharsozligida ko'chani yoki maydonning ikki betida bir-biriga qarata va bir kompozitsion o'qda joylashtirilgan ikki imoratning qurilishi "qo'sh" uslubi deb ataladi. Buxoro shaharsozligida qo'sh usuli Ulug'bek hamda Abdulazizxon Qo'sh madrasa (Abdullaxon va Modari Xon madrasalari) va Poyi Minor (Masjidi Kalon va Miri Arab madrasasi) na'munalarida namoyon bo'ladi.

O'rta Osiyo shaharsozligi tarixiga nazar solganimizda, me'moriy ansamblar tuzish san'ati qadimdan taraqqiy etib kelib XVI—XIX asrlarda juda ko'plab yangi usullarni keltirib chiqargani yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu davr me'morchilik obidalarini IX—XII va XIV—XV asrlardan saqlanib qolgan me'moriy yodgorliklari bilan solishtirib ba'zi olimlar asossiz ravishda keyingi asrlardagi O'rta Osiyo me'morchiligi tanazzulga yuz tutgan davr deb noto'g'ri xulosalar chiqarishadi. Aslida butunlay aksi. To'g'ri, XVI—XIX asrlarda bunyod etilgan obidalar o'zining geometrik shakllanishi, naqshlar va ranglarning o'rinli qo'llanilishini mahobati jihatidan temuriylar davri binolariga nisbatan soddaroq ko'rinishiga ega. Ammo o'zbek xonliklari davrida Buxoro va Xivadagi madrasa va xonaqohlarning gumbazlari, miyonsaroylari, hujralarining qurilishiga e'tibor bersak, ularda turli-tuman konstruktiv va me'moriy yechimlar qo'llanganligini, kishini lol qoldirar darajadagi gumbaz ichki naqshlanishlarini uchratish mumkin. Jumladan, Buxorodagi Ko'kaldosh, Abdullaxon, Miri Arab, Abdulazizxon madrasalarining miyonsaroylari, darsxonalari va masjidilari hamda Nodir Devonbegi va Xo'ja Zaynuddin honaqohlari gumbazlarining ichki bezaklari fikrimizning dalilidir.

Shuningdek, XVI—XIX asrlar shaharsozligida ansamblar shahar mahallalari va qishloq markazlarida, aholi yashash joylari oraliqlari hamda chekkalarida, karvonlar to'xtaydigan joylarda, muqaddas tabiat o'choqlari (biror bir buloq, daraxt, tosh, soy singari) va avliyo anbiyolar sajdagohi yoki qarorgohlari qoshida paydo bo'lgan.

Buxoro xonligi davrida shakllangan ilk ansambl — Poyi Minor ansambli hisoblanadi. Poyi Minor — Minorai Kalon etagida joylashgan me'moriy ansambl bo'lib, majmua XII—XVI asrlarda qurilgan uchta inshootdan, jumladan, Kalon minorasi, Kalon masjidi va Mir Arab madrasasidan tashkil topgan. Poyi Minor bosh Registon maydonida joylashgan va u Buxoroning markaziy me'moriy ansamblidir. Ansamblning hozirgi ko'rinishi 1536-yil Ubaydullaxonning ishonchli odami yamanlik Mir Arab maslahati bilan bunyod etilgan. Miri Arab vafotidan keyin qabri uning nomidagi madrasa hovlisida qad rostlagan va Ubaydullaxonning o'zi ham shu yerga dafn etilgan.

Kalon masjidi — qoraxoniylar masjidi hisoblangan Buxoro qal'a masjidi vayron bo'lgandan so'ng uning o'rniga qurilgan. Qurilishi 1514-yilda

yakunlangan, Samarqanddagi Bibixonim jome masjididan keyin Markaziy Osiyoda ikkinchi yirik masjid hisoblanadi.

Mir Arab madrasasi („arab amiri“) – 1535—1536-yillarda Ubaydullaxon tomonidan Yaman shayxi Abdulloh uchun qurilgan madrasa hisoblanadi. Bino ancha katta – 111 hujra va ikkita xoch shaklidagi zalni o‘z ichiga oladi: birinchisi masjid va ma’ruza zali sifatida ishlatilgan, ikkinchisi esa Ubaydullaxon va yamanlik Abdulla hamda boshqalarning qabri bo‘lgan.

Qo‘sh madrasa nomi bilan mashhur bo‘lgan ansambl – Modari Xon va Abdullaxon madrasalari hisoblanadi. 1566-1567 va 1588-1590-yillarda qurilgan bu ikki madrasa bir-biriga qarama-qarshi holatda qurilgan. Ta’kidlash joiz-ki, Modari Xon madrasasi sodda ko‘rinishga ega bo‘lsa, Abdullaxon madrasasi nihoyatda murakkab bog‘langan xonalar turkumidan iboratdir.

Modari Xon madrasasining oldingi tomoni bino tarziga Buxoro madrasasozligi an‘analariga xos ravoqchalar chiqarilgan. Bosh peshtoq orqasi va unga qaratilgan hovli to‘rida peshtoqli ikki ayvon qurilgan bo‘lib, yonon tomonlarda esa ayvon ham, peshtoq ham qurilmagan. Binoning umumiy tarhi trapesiya ko‘rinishida, o‘ng va chap tomonida qishki darsxona va masjid bor. Burchaklarga guldasta, tashqi izora va sharafalarda qisman chiziqli koshinpardozlik va koshinburushlik ishlatilgan.

Modari Xon madrasasining qarshisi, ko‘chaning g‘arbiy qismida Abdullaxon madrasasi qurilgan. Ba’zi mutaxassislarning fikriga ko‘ra, Abdullaxon madrasasi o‘zining tarhi, hujralarining yechimi bilan o‘sha davr me’morchilik san’atining zaiflashganligidan emas, balki o‘ziga xos yangi pog‘onaga ko‘tarilganligidan dalolat beradi. Chunonchi, to‘rtburchak hovliga to‘rtta an‘naviy ayvon chiqarilgan va madrasaning to‘ridagi xonalar usti gumbaz bilan yopilgan berk hovlicha atrofini o‘rab turibdi. Shuningdek, shimoliy tomonda ham yozgi darsxona ortidagi bir necha xonalar yon devor chizig‘idan bo‘rtib chiqarilgan shaklda qurilgan.

1580-yilda shayboniy hukmdor Abdullaxon Ulug‘bek madrasasini ziyorat qilgan va uning ma’lum miqdordagi vaqflarini qayta tiklashga farmon bergan. Ungacha esa bu yerda Mavlono To‘tining pullariga kichik madrasa qurilgan bo‘lib, ushbu madrasani XIX asr tarixchisi, samarqandlik Abu Tohirxo‘ja ham eslab o‘tgan.³⁷

XVI asrning 20-yillarida vayronaga aylangan Aliko Ko‘kaldosh masjidi o‘rnida shayboniylar sulolasi vakili Ko‘chkunchixon (1518-1529) yangi masjid barpo etdi. XVII asrga kelib Mirzo Ulug‘bek tomonidan bunyod etilgan Ulug‘bek xonaqohi vayrona holatiga kelib qolgandi va uning o‘rnida Samarqand hokimi Yalangto‘sh Bahodir Sherdor madrasasini (1619-1636), Mirzoyi karvonsaroyi o‘rnida Tillakori madrasa-masjidini (1646-1660) qurdirdi. Shu tariqa Registon maydoni yana chinakam ilm-u ma’rifat markaziga aylantirildi. Bu dargohda faqat samarqandlik yoshlarga emas, balki musulmon Sharqining o‘nlab mamlakatlaridan talabalar kelib tahsil olishar edi. Bu haqda

³⁷ Абу Тоҳирхожа. Самария. 32-б.

Volgabo'yi, Kavkaz, Afg'oniston, Ozarbayjon va hozirgi Qozog'istondan chiqqan mashhur olimlarning xotiralari guvohlik beradi.³⁸

Xullas, O'rta Osiyo shaharsozligida me'moriy ansambl va komplekslar yaratish san'ati bosh omil bo'lib hisoblangan. Ansamblarning turlari va joylashuviga qarab o'rganish shahar hamda aholi punktlarining kompozitsion shakllanishining mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" T. "Ma'naviyat" 2010.
2. Абу Тоҳирхожа. Самария. 32-б.
3. М. К. Ахмедов. ЎРТА ОСИЁ МЕЪМОРЧИЛИГИ ТАРИХИ. ТОШКЕНТ. "ЎЗБЕКИСТОН". 1995.
4. История Самарканда. С. 299.
5. Г.Агзамова. Ўзбекистон шаҳарлари XVI – XIX асрнинг ўрталарида. Тошкент. 2017.
6. ТОШКЕНТ «UZBEKISTAN TODAY». 2015.
7. Kudratov, D. (2023). ABOUT THE SHRINE OF KHOJAMUSKENT FATHER IN JIZZAH OASIS. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 3(12), 73-78.
8. Кудратов, Д. (2022). IX-XIV АСРНИНГ ЎРТАЛАРИ ШАҲАРЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ОМИЛЛАРИ. *RESEARCH AND EDUCATION*, 236.
9. Qudratov, D. (2021). PECULIARITIES OF THE FIRST URBANIZATION PROCESSES IN THE FERGANA VALLEY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY*, 2(12), 13-16.
10. Nematov, R. A., & Almanov's, Q. O. (2022). The role of historical sources in the study of the history of the turkish empire. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 2(10), 25-31.
11. Неъматов, Р. (2023). Илк ўрта асрлар Хоразм тарихшунослигининг бугунги ҳолати. *История и культура центральной Азии*, 1(1), 122-125.
12. Неъматов, Р. (2023). Хоразм Афригийлар сулоласи–Турк хоқонлиги сиёсий алоқалари. *Journal of Fundamental Studies*, 1(7), 16-23.
13. Mavlyanov, U. N. (2023). Issues of Knowledge in the Legacy of Ali Safi. *Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals*, 3(07), 41-43.
14. Mavlyanov, U. (2022). ABOUT "THE ART ACADEMY OF BAYSUNKUR". *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(06), 133-138.
15. Мавлянов, У. Н. (2020). ПРОБЛЕМЫ ОНТОЛОГИИ И НАСЛЕДИИ АЛИ САФИ. *Вестник Российского философского общества*, (1-2), 200-209.

³⁸ ЎЗБЕКИСТОН ОБИДАЛАРИ АҲАГИ БИТИКЛАР САМАРҚАНД. ТОШКЕНТ «UZBEKISTAN TODAY». 2015.

16.Марғилоний, М. А. (1999). Тарихи Азизий (Фарғона чор мустамлакаси даврида). Нашрга тайёрловчилар, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари: Ш. Воҳидов, Д. Сангирова. *Тошкент: Маънавият*.

17.Sangirova, D. K. (2000). Tarikhi Azizi. *vaznyi istochnik po istorii izucheniya tsarskogo colonial'nogo perioda*.

18.Sangirova, D. (2019). Hajj and the ruling pilgrims. *A look at the past*, (18), 27.

19.Urazalievna, A. G., & Fotima, X. (2024). TURKISTON QO'RBOSHILAR HARAKATI VA ULARNING FAOLIYATI. TALIM VA RIVOJLANISH TAHLILI *ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4(1), 5-10.

20.Urazalievna, A. G., & Aziza, P. (2024). FARG'ONA VODIYSIDAGI ISTIQLOLCHILIK HARAKATLARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI. *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4(1), 12-15.

21.Абдулхай, Г. У. (2020). ТУРКИСТОН АССР: ҚАНДАЙ ДАВЛАТ БЎЛИШИ КЕРАК ЭДИ. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, 3(1).

22.Мирзаева, Н. Д., & Расулова, М. А. К. (2016). К вопросу о религиозном составе населения русских поселков в Голодной степи (начало XX века). *Проблемы современной науки и образования*, (11 (53)), 44-45.

23.Хамидова, Х., & Мирзаева, Н. (2022). Xx asr boshlarida mirzachol vohasidagi agrar o'zgarishlar (—Туркестанское сельское хозяйство jurnali asosida). *Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы*, 1(1), 631-634.

24.Мирзаева, Н. (2011). Русские поселения Мирзачульского оазиса и их социально-экономическое положение в конце XIX—начале XX века. *Каталог авторефератов*, 1(1), 1-30.

25.Шадманкулова, М. М. (2018). СОЧЕТАНИЕ ЛИБЕРАЛЬНЫХ-ДЕМОКРАТИЧЕСКИХ ИДЕЙ В СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ УЗБЕКИСТАНА. *Социосфера*, (4), 226-232.

26.Шодмонкулова, М. М. (2018). ЛИБЕРАЛИЗМ: ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННОСТЬ. *Наука и образование: проблемы, идеи, инновации*, (4), 26-30.

27.Дубков, В. В., Абдияхатов, Х., Джанибекова, Н. А., & Шодмонкулова, М. (2012). ОДНА ЗЕМЛЯ, ЕДИНОЕ ЧЕЛОВЕЧЕСТВО (Тезисы проекта Идеологии планетарного единства). In *ИССЛЕДОВАНИЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА ОБЩЕСТВА И ФОРМИРОВАНИЕ НАПРАВЛЕНИЙ ЕГО СТРАТЕГИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ* (pp.94-99).

28.OBID, N., ULUGBEK, M., SHAROF, M., & RUSTAM, N. (2022). SOME CONSIDERATIONS OF THE COUNTRY LIFESTYLE DURING THE PERIOD OF PUBLIC COLLECTIVIZATION. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(1), 86-94.

29. Nazarov, O. R., & Nematov, R. A. O. (2020). FROM THE HISTORY OF UZBEKISTAN'S COOPERATION WITH UNESCO. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(4), 45-49.

30. Nazarov, O. R. (2020). THE ROLE OF HIPPOCRATES IN THE HISTORY OF WORLD MEDICINE. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(3), 66-64.

31. Yuldashevich, A. U., Mahmudovich, A. M., & Mengziya o'g'li, J. A. (2021). On the Migration of Turkish People to Turkestan, Molguzar Mountain Systems and Mirzachul (XVIII-First Half of the XIX Century). *European Scholar Journal*, 2(8), 64-65.

32. Алибеков, У., & Умарова, А. (2021). Образ волка в тотемистических и этномифологических воззрениях тюркских народов. *Общество и инновации*, 2(5/S), 39-48.

33. Маматов, Ш. М., & Алибеков, У. Ю. (2019). Повышение благосостояния сельского населения Узбекистана в свете Стратегии действий. *Наука, техника и образование*, (5 (58)), 63-65.

34. Алибеков, У. Ю. (2016). Земледельческие обычаи и обряды в этноэкологической культуре народов Узбекистана. *Проблемы современной науки и образования*, (11 (53)), 46-47.

35. Кудратов, С. С. (1992). Поселения левобережья р. Нарын в Фергане (III в. до н. э. – V в. н. э.): Дис.... канд. ист. наук. СПб.

36. Кудратов, С., & Маъруфов, Ш. (2021). МИРЗАЧЎЛДАГИ ҚАДИМГИ СУВ ИНШОАТЛАРИ. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, 4(11).

37. Кудратов, С. (2022). Археологик ёдгорликлар–ёшларда ватанпарварлик туйғусини шакллантиришнинг муҳим омили. *Значение цифровых технологий в изучении истории Узбекистана*, 1(01), 363-366.

38. Bosimovich, T. B., & Jonibek, R. (2022). FROM THE HISTORY OF EARLY MEDIEVAL POTTERY CRAFT. *World Bulletin of Social Sciences*, 16, 86-87.

39. BOSIMOVICH, T., & ALISHER, A. (2022). FROM THE HISTORY OF THE ANCIENT DEFENSE WALLS. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(5), 61-65.

40. Абдуматов, А. А. (2024). АКАДЕМИК АБДУЛАҲАД МУҲАММАДЖОНОВ ИЛМИЙ МЕЪРОСИДА ТАРИХИЙ ТАФАККУР МАСАЛАСИ. *Science and innovation*, 3(Special Issue 6), 426-431.

41. Alibekov, U., & Rayimjonov, I. (2024). TURKIY XALQLARNING KELIB CHIQISHI XIX ASR SHARQSHUNOSLARINING TALQINIDA. *Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal*, 2(1), 267-270.

42. Xoshimjon o'g'li, R. I. (2024). 8.4 MOVAROUNNAHRGA ISLOM DININING KIRIB KELISHI VA UYG'ONISH DAVRINING BOSHLANISHI. *Innovative technologies in construction Scientific Journal*, 8(1), 12-15.

43.Rayimjonov, I. X. O. G. L. (2022). ERSHI (MINGTEPA) HUDUDIDAGI TARIXIY-ARXEOLOGIK YODGORLIKLARI XUSUSIDA. *Scientific progress*, 3(5), 193-197.

44.Sherzod, M. (2025). The Social, Economic and Cultural Life of The Population of The Syrdarya Region in The Middle Ages. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY*, 6(01), 4-7.

45.MA'RUF OV, S. (2025). SIRDARYO VILOYATI HUDUDIDAGI MANZILGOHLARNING O 'RTA ASRLARDAGI MODDIY MADANIYATI XUSUSIDA YANGICHA QARASHLAR. *News of the NUUz*, 1(1.2. 1), 23-26.

46.Galiyev, S. (2024, September). O 'ZBEKISTONDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR MAXSUS TA'LIMI. In *CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD* (Vol. 1, No. 8, pp. 110-114).

47.Galiyev, S. (2024). O 'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIM ASOSLARINING O 'RNATILISHI VA RIVOJLANISHI. *Journal of science-innovative research in Uzbekistan*, 2(9), 70-74.